



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

TALABALARNING EKOLOGIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD AHVOLI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Egamova Gulnoza Istam qizi,

Buxoro davlat universiteti, pedagogika kafedrası tayanch doktoranti (PhD)

Buxoro shahri, O‘zbekiston Respublikasi

E-mail: gulnoza.egamova97@icloud.com

orcid: [0009-0008-9921-4231]

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida ekologik tarbiyani rivojlantirishning hozirgi holati tizimli, metodologik va empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida oliy maktab talabalarining ekologik kompetensiyalari tarkibidagi kognitiv, aksiologik hamda praksilogik komponentlarning shakllanganlik darajasi pedagogik diagnostika usullari orqali o‘rganilgan. Maqolada amaldagi o‘quv rejalari va dasturlarining mazmuni tanqidiy tahlil etilib, undagi deklarativlik hamda hayotdan uzilib qolganlik ziddiyatlari aniqlangan. Olingan empirik ma’lumotlar asosida oliy maktabda ekologik tarbiya jarayonini tubdan takomillashtirishning strategik yo‘nalishlari, jumladan, fanlararo integratsiya, keys-stadi, loyihaviy o‘qitish va eko-volontyorlik harakatlarini joriy etish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, kognitiv komponent, aksiologik determinant, praksilogik ko‘nikma, keys-stadi, loyihaviy ta’lim, eko-volontyorlik, uzluksiz ta’lim, empirik tahlil.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Эгамова Гулноза Истам кызы,

Базовый докторант (PhD) кафедры педагогики, Бухарский государственный университет

Город Бухара, Республика Узбекистан

Аннотация: В данном научном разделе подробно проанализировано современное практическое состояние развития экологического воспитания студентов высших учебных заведений с эмпирической и социологической точек зрения в разрезе когнитивного, аксиологического и прaksiологического критериев. В ходе исследования выявлена диалектическая диспропорция между высокими теоретическими знаниями студентов (72%) и их низкой практической активностью (18%), а также раскрыты недостатки традиционно-репродуктивной методологии в действующей системе образования. На основе системного анализа научно-теоретически обоснованы концептуальные и методические направления коренного совершенствования процесса экологического воспитания в высшей школе, в том числе механизмы экологизации содержания образования, интеграции кейс-стади, проектного обучения и эko-волонтерских движений в среду высшего образования.

Ключевые слова: экологическое воспитание, экологическая культура, когнитивный критерий, аксиологический детерминант, прaksiологический навык, кейс-стади, проектное обучение, эko-волонтерство, непрерывное образование, эмпирический анализ.

THE CURRENT STATE OF DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS AND WAYS OF ITS IMPROVEMENT

Egamova Gulnoza Istam qizi,

PhD student of the Department of Pedagogy, Bukhara State University

Bukhara city, Republic of Uzbekistan

Abstract: This scientific section provides a comprehensive empirical and sociological analysis of the current practical state of ecological education development among higher education students in terms of cognitive, axiological, and praxiological criteria. The research reveals a dialectical disproportion between students' high theoretical knowledge (72%) and low practical activity (18%), and exposes the weaknesses of the traditional-reproductive methodology in the current educational system. Based on the systemic analysis, conceptual and methodological directions for the fundamental improvement of the ecological education process in higher education are scientifically and theoretically substantiated, including mechanisms for ecologizing educational content, integrating case-studies, project-based learning, and eco-volunteering movements into the higher education environment.

Keywords: ecological education, ecological culture, cognitive criterion, axiological determinant, praxiological skill, case-study, project-based learning, eco-volunteering, continuous education, empirical analysis.

KIRISH

Global antropogen inqirozlarning jadallashishi, biosferaning o'z-o'zini qayta tiklash funksiyalarining buzilishi va mintaqaviy ekologik muammolarning o'tkirlashuvi zamonaviy ta'lim tizimi oldiga atrof-muhit barqarorligini ta'minlashga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash strategik vazifasini qo'yimoqda. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining ekologik madaniyatini yuksaltirish shunchaki tabiatni muhofaza qilishga doir bilimlarni mexanik tarzda uzatish emas, balki shaxsning qadriyatlar tizimi va intellektual salohiyatini fundamental qayta shakllantirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ekologik ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ekologik ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda "Yashil taraqqiyot strategiyasi – 2030" kabi davlat dasturlari qabul qilingan [1; 12-b.]. Mazkur normativ hujjatlarda barcha ta'lim bosqichlarida ekologik kompetensiyalarni o'quv fanlari tarkibiga singdirish va talaba-yoshlarning ekologik onglik darajasini oshirish mexanizmlarini yaratish qat'iy belgilangan. Biroq, zamonaviy oliy ta'lim amaliyoti va jamiyatning ekologik barqarorlikka bo'lgan ijtimoiy-ekonomik buyurtmasi o'rtasida chuqur ziddiyatlar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Mavjud oliy ta'lim dasturlarining aksariyati o'z mohiyatiga ko'ra ekologik muammolarni faqat tor doiradagi tabiiy fanlar tizimida o'rganish bilan cheklanib qolayotganligi, bo'lajak pedagoglar, muhandislar yoki iqtisodchilarning professional-ekologik madaniyatini shakllantirishga yetarlicha xizmat qilmayapti. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ekologik tarbiyasini rivojlantirishning hozirgi amaliy holatini tizimli baholash, tizimdagi kamchiliklar va ularning kelib chiqish sabablarini empirik dalillar yordamida ochib berish hamda uni takomillashtirishning konseptual va amaliy yo'nalishlarini ishlab chiqish bugungi kun pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA VA TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ekologik tarbiyalanganlik darajasini va uning komponentlar bo'yicha ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida kompleks metodlar majmuidan foydalanildi. Pedagogik eksperiment va empirik tahlil o'tkazish uchun pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan 150 nafar yuqori kurs talabalari jalb etildi. Talabalarining ekologik tayyorgarligi va tarbiyalanganligi uchta fundamental mezon (kognitiv, aksiologik, praksilogik) bo'yicha tizimli ravishda baholandi:

1. **Kognitiv mezon** – ekologik qonuniyatlar, atrof-muhit muammolari va ularning yechimlari to'g'risidagi nazariy bilimlarning chuqurligi va mantiqiyiligi (maxsus test topshiriqlari va intellektual so'rovnomalar orqali aniqlandi).
2. **Aksiologik mezon** – tabiatga bo'lgan shaxsiy va qadriyatli munosabat, antropotsentrik qarashlardan ekotsentrik dunyoqarashga o'tganlik darajasi (psixologik so'rovnomalar va interpretatsiya metodlari yordamida baholandi).
3. **Praksilogik mezon** – olingan bilim va qadriyatlarning kundalik maishiy hayotda hamda bo'lajak kasbiy faoliyatda amaliy ko'nikma va xatti-harakatlar sifatida namoyon bo'lishi (muammoli vaziyatli keys topshiriqlari va uzoq muddatli pedagogik kuzatuv usullari orqali baholandi).

Tadqiqot davomida olingan miqdoriy ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, sifat ko'rsatkichlari bilan solishtirildi. Bu esa amaldagi pedagogik jarayonning kuchli va zaif tomonlarini xolis baholash imkonini berdi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

O'tkazilgan empirik tadqiqotlar va sotsiologik so'rovnomalar natijalari amaldagi oliy ta'lim tizimida ekologik tarbiya berish jarayonida jiddiy disproporsiya (nomutanosiblik) mavjudligini ko'rsatdi. Olingan natijalarni tahlil qilish asnosida talabalarining javoblari va amaliy ko'nikmalari foiz ko'rsatkichlarida quyidagicha taqsimlandi:

- **Kognitiv mezon bo'yicha:** Talabalarining 72 foizi yuqori va o'rta ko'rsatkichni namoyon etdi. Ular global iqlim o'zgarishlari, issiqxona effekti, Orol dengizi fojiasi va atmosferaning kimyoviy ifloslanishi kabi muammolarning kelib chiqish sabablarini nazariy jihatdan aniq va to'g'ri izohlab

berishdi. Bu ko'rsatkich oliy maktabda axborot yetkazish va nazariy bilim berish tizimi ma'lum darajada yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

- **Aksiologik mezon bo'yicha:** Yuqori darajadagi ko'rsatkich bor-yo'g'i 34 foizni tashkil etdi. So'rovnoma ishtirok etgan talabalarning 66 foizi tabiatga hamon utilitar, ya'ni faqat moddiy foyda va resurs manbai sifatida (antropotsentrik yondashuv) qarashini namoyon qildi. Atrof-muhit muammolarini o'zlarining shaxsiy ma'naviy-axloqiy burchlari bilan bog'lash darajasi past bo'lib chiqdi.

Praksilogik mezon bo'yicha: Bu ko'rsatkich tadqiqotda eng past natijani – 18 foizni qayd etdi. Talabalarning mutloq ko'pchiligi (82 foizi) ekologik bilimlarga ega bo'lsa-da, ularni kundalik hayotlarida amalda qo'llamasliklarini, masalan, suv va energiyani tejash madaniyatiga amal qilmasliklarini, chiqindilarni saralashga e'tiborsiz ekanliklarini va atrof-muhitni asrashga qaratilgan ijtimoiy aksiyalarda ko'ngilli sifatida ishtirok etmasliklarini ko'rsatishdi.

1.3-jadval

Talabalarda ekologik tarbiyalanganlik darajasining mezonlar bo'yicha empirik ko'rsatkichlari tahlili (n=150)

№	Diagnostik a mezonlari	Shakllan ganlik darajala ri	Tala balar soni (nafa r)	Foiz ko'rsat kichi (%)	Real pedagogi k holat tavsifi
1.	Kognitiv mezon (<i>Nazariy bilimlar</i>)	Yuqori / O'rta Past	108 42	72% 28%	Global va mintaqaviy ekologik muammolar to'g'risida axborotga ega, fundamental qonuniyatlarni biladi.
2.	Aksiologik mezon (<i>Qadriyatli yondashuv</i>)	Yuqori / O'rta Past	51 99	34% 66%	Tabiatga utilitar (antropotsentrik) munosabat ustuvor, shaxsiy daxldorlik hissi zaif rivojlangan.
3.	Praksilogik mezon (<i>Amaliy-faoliyat</i>)	Yuqori / O'rta Past	27 123	18% 82%	Ekologik bilimlarni kundalik hayotda va kasbiy

					faoliyatda qo'llash, resurslarni tejash faolligi juda past.
--	--	--	--	--	--

Izoh: Jadval ko'rsatkichlari muallif tomonidan o'tkazilgan pedagogik diagnostika va sotsiologik so'rovnomalar natijalari asosida shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ilmiy jihatdan isbotlaydiki, talabalar ongidagi ekologik bilimlar faqat verbal (og'zaki) shaklda bo'lib, u shaxsning ichki qadriyatiga va turg'un xulq-atvor mezoniga (praksilogik darajaga) transformatsiya bo'lmayapti. Pedagog olim N.Sh. Alimqulov o'zining ilmiy tadqiqotlarida ushbu holatga baho berib, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya jarayoni hamon fragmentar va epizodik xarakterga ega ekanligini ta'kidlaydi [2; 112-b.]. O'quv rejalarida "Ekologiya" va "Atrof-muhitni muhofaza qilish" fanlarining soatlari keskin qisqartirilgan yoki ular faqat mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan tanlov fanlari blokiga kiritilgan. Bu esa talabalarda ekologik onglikning tizimli emas, balki tarqoq shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

MUHOKAMA

Empirik ma'lumotlar asosida aniqlangan kamchiliklarning tub pedagogik sababi — oliy maktab amaliyotida hamon axborotni shunchaki xotirada saqlash va qayta takrorlashga yo'naltirilgan reproduktiv metodologiyaning ustuvorligidir. J.O. Tolipova o'z ilmiy izlanishlarida haqli ravishda ta'kidlaganidek, an'anaviy darslarda qo'llaniladigan monoton va tayyor ma'lumotlarga asoslangan ma'ruzalar talabada ekologik faollik va qiziqish uyg'otish o'rniga, global va hududiy muammolarga nisbatan o'ziga xos "psixologik immunitet" yoki loqaydlik (apatiya) keltirib chiqaradi [3; 88-b.]. Talabalarni real ijtimoiy-ekologik muammolarni hal qilishga undovchi interaktiv muhit deyarli yaratilmagan.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida gumanitar va ijtimoiy-pedagogik fanlar blokining (pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya) juda katta tarbiyaviy va integrativ salohiyati bo'la turib, ulardan ekologik tarbiya yo'nalishida deyarli foydalanilmayotganligi ma'lum bo'ldi. Fanlararo aloqalar tizimsiz va yuza hisoblanadi. Rossiyalik taniqli pedagog va ekolog olim I.D. Zverev o'zining fundamental ishlarida fundamental qoidani ilgari surgan edi: ekologik ong o'z tabiatiga ko'ra sinkretik va global xarakterga ega, shuning uchun uni faqat bitta fanning chegarasida o'qitish kutilgan samarani bermaydi, balki u barcha o'quv fanlarining mazmuniga singib ketishi shart [4; 74-b.].

Mavjud amaliy holatni tubdan o'zgartirish va oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ekologik tarbiyasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi strategik va uslubiy yo'nalishlarni hayotga tatbiq etish ilmiy-pedagogik jihatdan zarur deb hisoblanadi:

1. Ta'lim mazmunini uzviy va tizimli ekologiyalashtirish (Ecologization): Bu jarayon o'quv fanlarini shunchaki mexanik ravishda ko'paytirishni emas, balki mavjud barcha fanlar, ayniqsa, pedagogik yo'nalishdagi fanlar o'quv dasturlariga ekologik mazmunga ega bo'lgan maxsus modullarni integratsiya qilishni taqozo etadi. B.A. Aliyev asoslab berganidek, ta'lim tizimidagi barcha metodologik instrumentalizmni utilitar-antropotsentrik xarakterdan ekotsentrik qadriyatlar tizimiga o'tkazish ushbu bosqichning bosh shartidir [5; 201-b.].

2. Innovatsion va faol pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish: An'anaviy ma'ruza darslaridan butunlay voz kechib, muammoli va loyihaviy ta'lim (project-based learning) tizimiga o'tish lozim. Darslarda keys-stadi (case-study) texnologiyasi yordamida talabalarga real hayotiy-ekologik muammoli vaziyatlar taqdim etilishi va ulardan ushbu vaziyatlarning nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-pedagogik yechimini loyihalashtirish talab qilinishi kerak. Bu talabalarda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini (praksilogik komponent) tezkor shakllantiradi.

3. Darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlar va talabalar ko'ngilli harakatlarini tizimli tashkil etish: Faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan yuqori samaraga erishib bo'lmaydi. Oliygozlarda ekovolontyorlik (eco-volunteering) harakatlarini, "yashil patmullar" yoki ekologik klublarni tashkil etish zarur. S.F. Ergashev o'z ishlarida ta'kidlaganidek, shaxs o'z qo'li bilan muayyan ekotizimni tiklashda (daraxt ekish, ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni saralash aksiyalarida) bevosita ishtirok etmas ekan, unda atrof-muhit uchun shaxsiy daxldorlik va barqaror ekologik mas'uliyat shakllanmaydi [6; 59-b.].

Oliy ta'limda ekologik tarbiya tizimini takomillashtirishning strategik yo'nalishlari va kutilayotgan pedagogik natijalar

№	Strategik yo'nalishlar	Amaliyotga joriy etish mexanizmlari	Shakllanadigan kompetensiya (Natija)
1.	Ta'lim mazmunini ekologiyalashtirish	Gumanitar va ijtimoiy-pedagogik fanlar o'quv dasturlariga fanlararo integrativ modullarni singdirish.	Ekotsentrik dunyoqarash, dunyoning ekologik yaxlitligini anglash.
2.	Innovatsion texnologiyalarni qo'llash	Dars jarayonlariga keys-stadi (case-study) va loyihaviy o'qitish (PBL) metodlarini tizimli kiritish.	Muammoli vaziyatlarda mustaqil va mas'uliyatli ekologik qarorlar qabul qilish ko'nikmasi.
3.	Darsdan tashqari eko-faoliyat	Oliygoch miqyosida eko-volontyorlik harakatlari, ekoklublar va amaliy "yashil" aksiyalarni tashkil etish.	Atrof-muhit uchun shaxsiy mas'uliyat va barqaror ekoturg'un xulq-atvor.

XULOSA

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvolini tizimli tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, amaldagi ta'lim metodikasi nazariy axborot ko'pligi va real amaliy-faoliyat ko'nikmalarining keskin yetishmasligi o'rtasidagi dialektik ziddiyat bilan xarakterlanadi. Talabalarining yuqori kognitiv tayyorgarligi (72%) ularning past amaliy-praksilogik faolligi (18%) bilan to'qnash kelmoqda, bu esa reproduktiv ta'lim modelining bugungi kun talablariga javob bermayotganligini isbotlaydi.

Oliy maktabda ekologik tarbiya tizimini takomillashtirish yo'llari ta'lim mazmunini izchil va tizimli ravishda fanlararo integratsiyalashtirishda, talabalarni mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilishga undovchi innovatsion interaktiv texnologiyalarni (keys, loyihalar, o'yinlashtirish) qo'llashda hamda darsdan tashqari jarayonlarni amaliy eko-volontyorlik muhiti bilan uzviy bog'lashda namoyon bo'ladi. Mazkur aniqlangan takomillashtirish yo'nalishlari tadqiqotning keyingi bosqichida — integrativ yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ikkinchi bobda oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berishning pedagogik shart-sharoitlari modelini yaratish uchun fundamental empirik va metodologik baza bo'lib xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi 434-sonli Qarori. – Toshkent, 2019. – 12-45 b.
2. Alimqulov N.Sh. Oliy ta’limda ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash. // Pedagogika va psixologiya masalalari. – Toshkent, 2021. – №2. – B. 110-116.
3. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 142 b.
4. Зверев И.Д. Экологическое образование школьников и студентов: Теория и практика. – Москва: Педагогика, 2015. – 210 с.
5. Aliyev B.A. Barkamol avlodni shakllantirishda ekosotsial yondashuv. – Toshkent: Fan, 2020. – 280 b.
6. Ergashev S.F. Talabalar ekologik madaniyatini shakllantirishda amaliy faoliyatning o‘rni. // Ta’lim taraqqiyoti. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 55-61.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbanova Nasiba Usmonovna , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
Mahmudova Zulfizar Eson Qizi , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
Sultonova Gulasal Shodmonovna , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
Azimova Dilnoza Orifovna , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
Tosheva N.T, Muhammadova M.F , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
Рузиева Наргиза Омонжоновна , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
Nazarova Aziza Sohib qizi , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
Nadirqanova Nilufar Alesherovna , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
Umedov Shaxzod , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
Omonov Qavmiddin Karimovich , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
Aslonova Emma Sergeyevna , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
Barnoyeva Sevara Uchqun qizi , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
Choriyeva Hilola Avaz qizi , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
D.I.Normatova , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
Toshmatov Bobur Alisher o'g'li , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inkluziv ta'lim modelini shakllantirish	103
Egamova Gulnoza Istam qizi , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirish usullari	117
Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129